



## MUVAFFAQIYATLI ILMYISH YOZISH ASOSLARI

Munisa Xodjaeva

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islam instituti talabasi

## Annotatsiya

“Ilmiy ish” so‘zining lug‘aviy va istelohiy ma’nolari, ilmiy sohada faoliyat olib borayotgan har bir tadqiqotchi bilishi lozim bo’lgan shartlar, muvaffaqiyatli ilmiy ish yozish qoidalari haqida ma’lumot beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Ilmiy ish, bahs,dalil, hujjat, ma’lumot, tadqiqot, naql, haqiqat, ahamiyat, reja.

**Ilmiy ish nima?**

“Ilmiy ish” yoki “ilmiy bahs” bir mavzuni bahs qilib uning haqiqati va ahamiyatini ochib berishdir.

Istelohda esa – haqiqatni izlab, uni o‘rganish va keng yoyishdir. Ibn Manzurning “Lisanul arab” asarida: “Bahs – bir narsa haqida so‘rash va uni qidirishdir”, deyilgan<sup>1</sup>. Demak, ilmiy bahs qaysi turda bo‘lsa ham ma’nosи bir narsaning tagiga yetib, uni haqiqatini topish va keng yoyishdir.

Ilmiy ish – tadqiqotchi o‘rganib, nihoyasiga yetkazgan ishi bo‘yicha keng qamrovli hisobotidir. Ushbu hisobotda fikr o‘larоq boshlangan o‘rganishning reja asosida yozilgan, dalil va hujjatlar bilan isbotlangan bosqichlari bir ishda jamlanadi<sup>2</sup>.

Bu “hisobot”ning qiymati bir qancha omillarga bog‘liq bo‘lib, eng muhimi tadqiqotchi o‘z ishida oldiga qo‘yan maqsadni ochib berishi kerak.

Zero, tadqiqotchi o‘rganishni avvalo haqiqatni o‘zidan boshlaydi. Unda bu bo‘yicha avval hech qanday ma’lumot bo‘lmaydi. Ma’lumotlarni yig‘ib, o‘qib chiqadi, ba’zisini ba’ziga solishtiradi. Ma’lumotlarni jamlash va o‘qish asnosida hissiyotga berilmaydi. O‘rganishni bir narsani isbotlash uchun emas, balki yangi narsani kashf qilish uchun bo‘ladi.

**Muvaffaqiyatli ilmiy ish qanday yoziladi?**

Ilmiy ish yozmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi ishni boshlashdan avval quyidagilarni yaxshi bilib olishi lozim:

**1. Puxta o‘rganish:** Bahs qiluvchi qaysi mavzuni tadqiq qilmasin butun vujudi va e’tibori bilan o‘rganishi lozim. O‘rganayotgan mavzusiga bog‘liq barcha bahslarga qattiq e’tibor berishi, avvalo, o‘rganishi lozim bo‘lgan mavzusining chegarasini aniqlab olishi kerak. Chunki ilmiy ishni topshirish vaqtida komissiya a’zolari unga e’tiborsiz qoldirgan mavzularidan savol berib qolishlari mumkin. Natijada ma’lum darajada o‘rganib xulosa bergen ma’lumotlari ham fikridan qochib ketadi.

**2. Boshqalarining fikrlarini yaxshilab tushunish:** Shuningdek, kitoblar iborasini ham tushunishga qattiq e’tibor berish lozim. Chunki, ko‘p tadqiqotchilar

<sup>1</sup> Ibn Manzur. Lisanul arab. Doru c-Sodir. Bayrut:, 1993. J-2. B-15.

<sup>2</sup> Ahmad Shibliy. Ilmiy ish yoki tadqiqot qanday yoziladi?. Maktabatun Nahza. Qohira:, 1997. B-35





boshqalardan xato naql qilish yoki noto‘g‘ri tushunish natidasida ilmiy ish mukammal bo‘lmaydi.

**3. Boshqalarning fikrini eng to‘g‘ri ma’lumot deb, qabul qilmaslik:** Fikrlar orasida to‘g‘ri asosga qurilmaganlari ham uchrab turadi. Tadqiqotchi boshqalar fikrini o‘rganish asnosida o‘sha fikrlarning asoslarini ham bilib olishi ular orasidan to‘g‘risini tadqiqotida bayon qiladi. Yetarli asosga ega bo‘lmaganlarini tark qiladi.

**4. Ma’lum bo‘lgan ilmga yangilik kiritish:** Tadqiqotchi bir tadqiqot ustida boshqalar o‘rganmagan taraflarini bahs qilishi kerak. Bu bilan ilmda yangi qadam qo‘yadi va jamiyatning ilmiy rivojlanishida o‘z o‘rniga ega bo‘ladi. Tadqiqot ishlarida yangilikni kashf qilishni o‘zi yetarli emas. Chunki barcha inson ham hali ochilmagan mavzuni kashf qilish mumkin. Biroq, o‘rganilgan mavzuning yangi qirrasini ohib berish esa, bu ancha qiyinroq va bahs talab qiladigan ishdir. Bunga misol qilib, ma’lum ishni boshqa yangi va foydali ko‘rinishda tartiblab chiqish yoki qadimgi haqiqatlarning yangi sabablarini ko‘rsatib berish yoki tarqoq holdagi ma’lumotlarni jamlab, foydali bir ma’lumot tayyorlash.

**5. Tadqiqotni foydali bo‘lishga harakat qilish:** Tadqiqotchi barcha ma’lumotlari jamlab, yaxshilab o‘rganib chiqqach, ishni yoza boshlaydi. Yozganlari barcha o‘quvchilarga foydali bo‘lishi uchun bildirayotgan fikrlariga muvofiq dalillarni ham keltirishi ham lozim. Tadqiqotchining eng muhim vazifasi ilmiy ish go‘zal uslub bilan yozilgan, tartiblangan foydali ma’lumotlar bilan boyitilib, o‘quvchining e’tiborini o‘ziga jalg qiladigan bo‘lishi kerak<sup>3</sup>.

Tadqiqotchi shuni yodda tutishi kerakki, bir qal’ani qamal qilishni istagan qo‘mondon qo‘sishinlarini o‘sha ishni bajarishga qattiq tayyorlaydi. so‘ngra, hujumni qattiq nazorat qiladi va to maqsadiga erishguncha, bir lahma xam e’tiborini so‘ndirmaydi. Huddi shunday tadqiqotchi ham ilmiy bahsdan iborat maqsadiga erishishi uchun barcha ma’lumotlarni to‘playdi, so‘ng bahsga taalluqli bo‘lganlarini olib, go‘zal uslub va diqqatlilik bilan bahsni yoza boshlaydi. Tadqiqotchining vazifasi yangilik kashf qilish emas, balki bor narsani boshqa taraflarini chiroyli tarzda ohib berishidir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahmad Shibliy. Ilmiy ish yoki tadqiqot qanday yoziladi?.Maktabatun Nahza. Qohira:, 1997.
2. Ibn Manzur. Lisanul arab. Dorus-Sodir. Bayrut:, 1993.
3. Mualliflar jamoasi. Ilmiy risola yozish qo‘llanmasi. Jidda universiteti nashriyoti. Jidda:, 2019.
4. Ayman Abu Rus. Muvaffaqiyatli tadqiqot qanday yoziladi?. Darul Talo‘e nashriyoti. Qohira:, 2013.

<sup>3</sup> Ahmad Shibliy. Ilmiy ish yoki tadqiqot qanday yoziladi?.Maktabatun Nahza. Qohira:, 1997. B-39.

